



## THE ROLE OF FEMALE WRITERS IN THE DEVELOPMENT OF PASHTO-LANGUAGE LITERATURE IN AFGHANISTAN

**Fazilatkhon Temurmalikova**

3rd-year student, Pashto-English group

School of Iranian and Afghan Studies

Tashkent State University of Oriental Studies

**N. Kabirova**

Associate Professor, PhD,

School of Iranian and Afghan Studies, TSUOS

Tashkent, Uzbekistan

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** realism, symbol, composition, artistic device, plot.

**Received:** 28.04.25

**Accepted:** 10.05.25

**Published:** 14.05.25

**Abstract:** This article explores the development of Pashto-language literature in Afghanistan, particularly from the 1980s onward. It highlights the significant contributions of female writers to the evolution of prose genres alongside poetry. In particular, it analyzes the role of Sharifa Sharif, a prominent female writer, in truthfully portraying societal issues and creating vivid, multidimensional characters. The artistic analysis of her short story "Dahil Bahir" demonstrates her effective use of various genres and literary techniques.

## AFG'ONISTON PASHTUZABON ADABIYOTI RIVOJIDA AYOL IJODKORLARNING O'RNI

**Fazilatxon Temurmalikova**

3-kurs pashtu-ingliz guruhi talabasi

"Eronshunoslik va afg'onshunoslik" oliy maktabi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

**N. Kabirova**

"Eronshunoslik va afg'onshunoslik" oliy maktabi dotsenti, PhD

TDShU

Toshkent, O`zbekiston

## MAQOLA HAQIDA

**Kalit so‘zlar:** realizm, ramz, kompozitsiya, tasviri vosita, syujet.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Afg‘oniston pashtuzabon adabiyotining shakillanishi, unda XX asrning 80-yillardan e’tiboran ushbu adabiyotning nasriy janrlari, jumladan, she’riyat bilan bir qatorda hikoyachilikda ham jiddiy rivojlanishida ayol ijodkorlardan Sharifa Sharifning jamiyat muammolarini haqqoniy ko‘rsatib berish va undagi yorqin, keng ko‘lamli qiyofalar, qahramonlar obrazini yaratishda, turli janriy shakllar va badiiy uslublardan foydalanishlarni “Dahil Bahir” hikoyasini badiiy tahlili orqali kuzatiladi.

## РОЛЬ ЖЕНЩИН-ПИСАТЕЛЬНИЦ В РАЗВИТИИ ПУШТУЯЗЫЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ АФГАНИСТАНА

**Фазилатхон Темурмаликова**

Студентка 3 курса, группа пушту-английский

Высшая школа иранистики и афганистики

Ташкентский государственный университет востоковедения

**H. Кабирова**

доцент, PhD,

Высшая школа иранистики и афганистики, ТГУВ

Ташкент, Узбекистан

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** реализм, символ, композиция, изобразительное средство, сюжет.

**Аннотация:** В статье рассматривается становление пуштуязычной литературы Афганистана, особенно начиная с 1980-х годов. Особое внимание уделяется вкладу женщин-писательниц в развитие прозаических жанров наряду с поэзией. Через художественный анализ рассказа «Дахиль Бахир» прослеживается творческий подход Шарифы Шариф — видной писательницы, правдиво отражающей проблемы общества, создающей яркие, многогранные образы героев, а также использующей разнообразные жанровые формы и литературные приёмы.

Adabiyot qalblarga orom beruvchi, insonlar ruhiyatini mulohazaga chorlovchi, hayotni rangli va rangsiz nigohlarda jonlantiruvchi ajoyib san’atdir. Bu so‘z san’ati qaysi xalq adabiyoti bo‘lishidan qat’iy nazar, qalblarni junbushga keltiruvchi va insonni ruhan o‘ylashga, fikrlashga undovchi kuchdir. Quyida ijodkor afg‘on ayollarining asarlari kitobxonlari orasida yoyilishi, rivojlanishi va eng muhimmi ularning ilk qadamlari, ya’ni iste’dod egalari to‘g‘risida ma’lumotlarni keltirib o‘tamiz.

Malala Yusufzay 1997-yilda Pokistonning Svat vodiysida tavallud topgan. 2014 yilda Nobel mukofoti sovrundori bo‘lgan. Malala 11 yoshida BBC urdu uchun “Tolibon” ni Svad vodiysidagi hayotga tasiri haqida yozgan.

Khalida Brohi 1988-yilda Pokistonda tavallud topgan. Khalida Brohi Pokistonning qishloq joylarida qizlarning ta’lim olish va “nomus qotilliklari” ga qarshi kurashgan. Sughar Foundation asoschisi, u tashkilot qizlarni o‘qitib ularga iqtisodiy mustaqillik berishga yordam beradi.

Shabana Basij-Rasix 1990-yil tavallud topgan. U Afg‘oniston tolibon hukumati ayollarning ta’lim tarzda faoliyatini davom ettirgan. Keyinchalik Afg‘onistonda “School of Leadership” Afg‘oniston (SOLA) maktabini ochgan. Bu maktab faqat qizlar uchun TIME 100 - royxatiga kiritilgan.

Afg‘oniston pashtu tilining nasrini tadqiq etar ekanmiz, ularda jamiyat ichidagi muammolarni tahlil qilish chuqurlashganini, shaxsning o‘rab turgan muhit bilan o‘zaro aloqasi ko‘rsatila boshlanganini, hamda asosiy qarama-qarshi sinflararo munosabatlar tasvirlanganini kuzatamiz.

Odamni ibtidodan hozirgacha bir xil tasavvur qilish mumkin emas. Chunki davrlar o‘tgan sayin insonning fikrlash salohiyati, madaniy saviyasi, ma’naviy qiyofasi o‘zgaradi. Uning qadr-qimmati, mavqeい har tomonlama yangilanishga uchraydi. Bugunga kelib mamlakat mustaqilligi inson manfaatlarini himoyalashni asosiy maqsadiga aylantirdi. Shu bilan birga ijodkorlar tomonidan odamni turli holatlarga solib o‘rganish, uni ifodalash, tasvirlash erkin amalga oshirilmoqda. Bu esa adabiyotda yangi obrazlar yaratish bosqichini yuzaga keltiradi .

Afg‘oniston pashtuzabon nasrining vakilalari inson qiyofalarini har tomonlama, chuqur va yorqin tasvirlashga harakat qilib, psixologik uslubga ham murojaat etishga harakat qildilar. Ular ilgari kuzatilmagan holatlar - ichki hissiyotlarni, o‘y-xayollarni berishga va manzaralarni ko‘rsatishga urina boshlagan adibalardan biri Sharifa Sharifdirlar.

U 1333-hijriy shamsiy yil Qalat shahrida ziyoli va ma’rifatli oilada dunyoga keldi. Uning asl ona vatani mamlakat shimolida joylashgan Ko‘histon vodiylarida bo‘lib, umrining katta qismi Kobulda o‘tgan. Sharifa 12-sinfni tugatgach, Kobul universitetining til va adabiyot yo‘nalishining pashtu tili bo‘limida o‘qishni davom ettirdi. 1355 yilda fakultetni tugatgandan so‘ng u Pashtu jamiyatiga a’zolikka qabul qilindi. 1357 yildan 1364 yilgacha adabiyot yo‘nalishida magistratura bosqichini AQSH da davom ettirdi. So‘ngra Doktorlik ta’limini oldi. Afg‘onistonda birlashgan millatlarning ayollar faoliyati bo‘yicha maxsus idorada faoliyat yuritib, ayollar faoliyati va mavqeい borasida qator asarlar, tadqiqtolar bilan shug‘ullangan.

Sharifa Sharif qalamiga mansub “دزوندانخور” (“Hayot chizgisi”) nomli kitobda mamlakatning ko‘plab qudratli va mashhur yozuvchi va shoirlarining asarlari jamlangan. Shuningdek adibaning “O‘n ikki qo‘schiqchi” nomli hikoyasi Germaniyada nemis tiliga tarjima qilinib, kitobxonlarga taqdim etilgan.

Pashtuzabon adabiyoti jamiyatdagi ayrim muammolarni, tartibsizliklarni, tengsizlik va zo‘ravonlik dunyosini badiiy tasvirlashda muvaffaqiyat qozongan Sharifa Sharifning “Дэхилу беир” (“Dahil Bahir”) hikoyasida ham jamiyat hayotining turli ijobiy va murakkab ko‘rinishlari, ayol kishining qanchalar mustahkam iroda sohibasi ekanligi ochib berilgan.

“خواتди курм ю ھ بو дى يحه نастеде بمتى جами يи بهان ، لوی بیتمى بي یدغیر کي تинک نيو لى”

“Yon tomonda bir keksaygan ayol o‘tirardi. U milliy libosda edi, katta tugunchani qo‘llari bilan mahkam ushlab olgan”.

“د شرم او خو انجى هي بدسخ ليدل كيرى شوتدى بي رىرى”

“Uning yuzi uyat va g‘amdan qizarib ketgan, lablari titrardi”.

“دەھر او غصى لرلوسترکىسىرە مغتە كورى جى شوندى لاتورى او بىتىر يو تىندى شира ورتە كوى”

“Unga tikilib turgan g‘azabnok odamning ko‘zлари qizargan, labi qimtilgan, qoshlari esa jiddiy chimirilgan edi”.

“كىلەماتە كورى كله خىلى لەن تەھجى زىماد كالوسىرە نۇ دى دە بدوير ، وېرە داسى جى كىنكلۇتە بەتىمە دە”

“U lablarini qimtib, sovuq nigoh bilan menga qaradi, keyin esa o‘z lablariga e’tibor qaratdi”.

“خداى كەپى دادر ئى شبى مرى خولى تە و رورى وى شو نىبى تىبورى وزە دو سىرە بوهىرم جى غۇته شۇي خېر كېيى”  
“بىسلىه وېرى مۇدى نېھىر انىزى خونە بوهىرم جى خەۋا ئابى”

“Shunday chuqur nafas oldiki, go‘yo yuragidan og‘ir yuk ko‘tarildi. U bog‘ichini mahkam ushlagancha, o‘ziga yaqin tortdi. Go‘yo u faqat shu bog‘ich bilangina bog‘liq edi”.

Hikoyadagi keksa ayolning kiyimlari kir va eskirgan, qo‘llari dag‘al, tirnoqlari siniq, lekin u mehribonlik bilan jilmayishga urinishi. Ayol keksaligida ham hayotidan umidini yo‘qotmagan kuchli inson sifatida tasvirlanganligini ko‘rishimiz mumkin. Shu bilan birga asarda rang tasvir va ramzlardan ham juda chiroylı foydalanilgan. Hikoyadagi keksa ayolning katta tugunchasini mahkam ushlashi – uning bor-yo‘g‘i shundan iborat ekaniligi, bu tuguncha umri davomida yig‘ilgan iztiroblari, og‘ir xotiralari va sabrning ramzidir.

“خواتди курм ю ھ بو дى يحه ناستеде بمتى جامي يي بهان ، لوی بیتمى بي یدغیر کي تينک نيو لى”

“Yon tomonda bir keksaygan ayol o‘tirardi. U milliy libosda edi, katta tugunchani qo‘llari bilan mahkam ushlab olgan.”

Hikoyada ijtimoiy tengsizlik, insoniylik, achinish va o‘zlikni anglash bilan bir qatorda, ramziy va falsafiy mazmun kasb etadi. Keksa ayol obrazining ruhiy kechinmalari chuqur ma’no anglatadi.

“Sen juda iflossan! Oyoq kiyimlaringni tozala” degan so‘zлари ijtimoiy tabaqalanish va insoniylikning yo‘qolib borayotganini ifodalaydi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishmiz mumkinki, afg‘on adabiyoti rivoji uchun o‘z hissalarini qo‘shib kelayotgan ayollar va ularning ijodlari taqsinga sazovardir. Bunga birgina Sharifa Sharifning “Dahil Bahir” hikoyasini tahlili qilish jarayonida guvoh bo‘ldik. Unda ayollariga bo‘layotgan munosabat, ijtimoiy tengsizlik, insoniylik va ichki iztirob ustuvor mavzular sifatida ko‘rinadi. Hayot

va insoniy munosabatlar haqida mulohaza yuritishga undashi bilan birga badiiy jihatdan kuchli metaforalar, ramziy tasvirlar va ruhiy kechinmalar tasvirlangan. Umuman olganda, hikoya hayotiy, ma'noli va o'quvchini chuqur o'yga toldiradigan asar sifatida aytishimiz mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kabirova N.K. Rahnavard Zaryob hikoyalarining poetikasi. Monografiya. Toshkent-2021.
2. Spujmay Zaryob hikoyalarida oilaviy munosabatlar va ayol kechinmalarining badiiy ifodasi. Toshkent. 2023. Sharqshunoslik. Ilmiy jurnali. №1.
3. Герасимова А., Гирс Г. Литература Афганистана. –М.: ИВЛ, 1963.
4. Гирс Г.Ф. Современная художественная проза на пушту в Афганистане. –М.: 1958.
5. کبرا مظہری ملورد .کال ۱۳۶۶ . پښتني لیکوالی او شاعرانی
6. انځور زرين، د پښتو لنډي کيسې یو لنډ تاریخي جاچ، «کابل» مجله، ۱۳۶۳ کال، ۱۰ گنه، ۵۸-۷۳ مخوبه